IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 01. Oktabr, 2026

FRANSIYANING YEVROPA ITTIFOQI INSTITUTLARARO TA'SIR MEXANIZMLARI HAMDA ZAMONAVIY YEVROPA SIYOSIY MAKONINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Sunnatova Madina G'ofurjon qizi
E-mail: sunnatovamadinka@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.23269559

Annotatsiya: Ushbu maqolada Fransiyaning Yevropa Ittifoqidagi (YI) ta'sir mexanizmlari, "Strategik avtonomiya" g'oyasi va Yevropa Siyosiy Hamjamiyati tashabbusi orqali Yevropa geosiyosatini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Qiyosiy va sifatiy usullar yordamida Parijning YI qarorlariga ta'siri hamda bu yetakchilikning Markaziy Osiyo, xususan O'zbekiston bilan energetika, transport va iqtisodiy hamkorlikdagi ahamiyati baholangan. Maqola xulosalari xalqaro munosabatlar mutaxassislari uchun amaliy va nazariy qiymatga ega.
Kalit so'zlar: Fransiya tashqi siyosati, Yevropa Ittifoqi, Yevropa siyosiy hamjamiyati, strategik avtonomiya, Markaziy Osiyo, O'zbekiston.

Аннотация: В данной статье анализируются механизмы влияния Франции в Европейском Союзе (ЕС), концепция «Стратегической автономии», а также её роль в формировании европейской геополитики через инициативу Европейского политического сообщества. С помощью сравнительного и качественного методов оценивается влияние Парижа на принятие решений в ЕС, а также значение этого лидерства для развития сотрудничества с Центральной Азией, в частности с Узбекистаном, в сфере энергетики, транспорта и экономики. Выводы статьи имеют практическую и теоретическую ценность для специалистов в области международных отношений.
Ключевые слова: Внешняя политика Франции, Европейский Союз, Европейское политическое сообщество, стратегическая автономия, Центральная Азия, Узбекистан.

Abstract: This article analyzes France's mechanisms of influence within the European Union (EU), the concept of "Strategic Autonomy," and its role in shaping European geopolitics through the European Political Community initiative. Employing comparative and qualitative research methods, the paper evaluates Paris's impact on EU decision-making processes and the significance of this leadership in fostering energy, transport, and economic cooperation with Central Asia, particularly Uzbekistan. The article's conclusions hold both practical and theoretical value for international relations experts.
Keywords: French foreign policy, European Union, European Political Community, strategic autonomy, Central Asia, Uzbekistan.

1. Kirish. Bugungi xalqaro munosabatlar tizimi ko'p qutblilikka o'tmoqda. An'anaviy xalqaro tashkilotlar inqirozga uchrayotgani va xavfsizlikka tahdidlar ortayotgani sababli, Yevropa Ittifoqining (YI) mustaqil harakat qilish qobiliyati eng dolzarb masalaga aylandi. Ushbu murakkab jarayonda Fransiya Respublikasi YI Tashqi va xavfsizlik siyosatini shakllantirishda

asosiy harakatlantiruvchi kuch vazifasini o‘tamoqda. Bunga Fransiyaning BMT Xavfsizlik Kengashidagi doimiy a’zoligi, YIdagi yadroviy maqomi hamda kuchli harbiy-diplomatik salohiyati zamin yaratadi. Charlz Grant ta’kidlaganidek, YIning kelajakdagi geosiyosiy o‘zligi ko‘p jihatdan Parij ilgari surayotgan konseptual g‘oyalarga bog‘liqdir [1].

Fransiya o‘zining boy diplomatik an’analariga va "Gollizm" g’oyasiga tayanib, o’z milliy manfaatlarini Yevropa Ittifoqi qoidalariga muvaffaqiyatli joriy etib kelmoqda. Gollizm an’analarining zamonaviy ko‘rinishi — bu Yevropani super-davlat emas, balki "suveren davlatlar Yevropasi" va global kuch markazi sifatida shakllantirishga qaratilgan intilishdir. Bugungi kunda YI tashkiliy tizimi oldida turgan asosiy geosiyosiy chaqiriqlar — AQSh bilan transatlantik xavfsizlik kafolatlarini qayta ko‘rib chiqish, Transatlantik va YI sharqiy chegaralarida barqarorlikni ta’minlash, YIning sharqqa kengayish bosqichlari va "yashil" energetika tranzitini amalga oshirishdan iborat. Bu sharoitda Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron tomonidan ilgari surilgan "Yevropa strategik avtonomiyasi" (Autonomie stratégique européenne) hamda Yevropa Siyosiy Hamjamiyati (EPC) konsepsiyalari YI tashqi siyosiy strategiyasining ustuvor yo’nalishlariga aylandi [2]. Yevropa strategik avtonomiyasi tushunchasi konseptual jihatdan ilk bor 1994-yilda Fransiyaning Mudofaa bo‘yicha "Oq kitobi"da (Livre Blanc sur la Défense) namoyon bo‘lgan bo‘lsa-da, Yevropa Ittifoqi darajasidagi rasmiy hujjatlarda birinchi marta 2010-yilda Yevropa Parlamenti hisobotida tilga olingan. Keyinchalik, 2013-yilda bu tushuncha Yevropa Komissiyasi va Yevropa Kengashi hujjatlarida aks etib, Yevropa Ittifoqining mustaqil harakat qilish hamda mudofaa sanoatini rivojlantirish omili sifatida belgilandi [3].

O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari uchun YI ichki institutlaridagi ushbu strategik transformatsiyalarni, xususan, Fransiyaning ko‘p tomonlama diplomatiya va xavfsizlik modellarini chuqur tahlil qilish strategik zaruratdir. Bu O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosiy konsepsiyasi doirasida Yevropa yo‘nalishida muvozanatli, ko‘p vektorli va amaliy natijalarga yo‘naltirilgan hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi — Fransiyaning YI tashqi va xavfsizlik siyosatiga ta’sir o‘tkazishning tashkiliy va huquqiy usullarini va uning Markaziy Osiyo, xususan O‘zbekiston bilan hamkorlikdagi amaliy natijalarini atroflicha ko‘rib chiqish va tahlil etishdan iborat.

2. Metodologiya. Tadqiqotda xalqaro munosabatlar nazariyalari hamda siyosiy-huquqiy tahlil usullaridan foydalanildi:

- Qiyosiy tahlil: Fransiya va YI organlarining qaror qabul qilish jarayonlari o‘zaro solishtirildi. Shuningdek, Fransiyaning mudofaa hujjatlari YI strategiyalariga qanchalik mos kelishi o‘rganildi.
- Hujjatlar tahlili: YIning rasmiy qarorlari, Yevropa Siyosiy Hamjamiyati hujjatlari va Fransiya Prezidenti E.Makronning dasturiy nutqlari o‘rganildi.
- Amaliy vaziyatlar tahlili (Case-Study): Fransiyaning Markaziy Osiyo va O‘zbekiston bilan energetika, savdo va transport sohalaridagi amaliy loyihalari baholandi.

3. Natijalar. Fransiyaning YI tashqi siyosatiga ta’sirini 4 ta asosiy yo‘nalishda ko‘rish mumkin. Birinchidan, "Strategik avtonomiya" va mudofaa sanoatini birlashtirish. Fransiya diplomatiyasi "Yevropa strategik avtonomiyasi" g‘oyasini amaliy-huquqiy va moliyaviy

majburiyat darajasiga ko‘tara oldi. Parij tashabbusi bilan qabul qilingan Yevropa Mudofaa Sanoati Strategiyasi (EDIS) va Yevropa Mudofaa Investitsiyalari Dasturi (EDIP) YIga a’zo davlatlar harbiy xaridlarining muayyan qismini Yevropa mudofaa-sanoat kompleksi ichida amalga oshirish talabini qo‘ydi [5]. Shuningdek, YI doirasida inqirozli vaziyatlarda tezkor joylashtiriladigan 5 000 kishilik tezkor harakat qiluvchi harbiy kuchlar (EU Rapid Deployment Capacity) tuzilishi Fransiyaning strategik rejalari va harbiylashtirilgan diplomatiya qarashlariga to‘liq mos keladi [4]. Parij bu orqali YI ichida xavfsizlik sohasida AQSh va NATOga bo‘lgan bir tomonlama qaramlikni kamaytirishni va Yevropa mudofaa sanoatining texnologik suverenitetini ta’minlashni ko‘zlaydi.

Ikkinchidan, Yevropa Siyosiy Hamjamiyati (EPC) — Ko‘p Tomonlama Diplomatiyaning Yangi Modeli. 2022-yilda Fransiya Prezidenti E. Makron tomonidan taklif etilgan Yevropa Siyosiy Hamjamiyati (Communauté politique européenne — EPC) Yevropa qit’asida rasmiy diplomatik platformaga aylandi: EPC YIga a’zo 27 ta davlat va YIga a’zo bo‘lmagan 20 dan ortiq mamlakatlarni (Buyuk Britaniya, Turkiya, Janubiy Kavkaz va Markaziy Osiyo davlatlari vakillari) yagona muloqot maydoniga birlashtiradi. Qolaversa, ushbu format YIning qat’iy tartiblaridan holi bo‘lib, rasmiy a’zolik majburiyatini yuklamaydi. Biroq u energetika xavfsizligi, kibertahdidlar va geo-iqtisodiy masalalarda oliy darajadagi erkin va samimiy muloqot imkonini beradi [3].

Uchinchidan, energetika mustaqilligi, "Yashil" qoidalar va tizimli bosim. Fransiyaning strategik sa’y-harakatlari va diplomatiyasi evaziga YI doirasida 14 ta davlatni qamrab olgan "Yadro aliansi" (Nuclear Alliance) shakllandi. Parijning siyosiy bosimi va faol muzokaralari natijasida atom energiyasi YI Taksonomiyasiga ekologik toza, o‘tish davri uchun xavfsiz va barqaror energiya manbai sifatida rasman kiritildi [7]. Uglerod solig‘i mexanizmi YI bilan boshqa mamlakatlar o‘rtasidagi savdo munosabatlarida asosiy ekologik va huquqiy qoidaga aylandi.

To’rtinchidan, Markaziy Osiyo va O‘zbekiston yo‘nalishidagi amaliy strategiya. Fransiyaning YIdagi yetakchilik roli Markaziy Osiyo mintaqasiga nisbatan Global Gateway va Transkaspiy transport yo‘lagi (Middle Corridor) loyihalarida aniq namoyon bo‘lmoqda. O‘zbekiston bilan munosabatlarda Fransiyaning yirik transmilliy korporatsiyalari — EDF, TotalEnergies, Orano, Suez va Veolia orqali qayta tiklanuvchi energiya, strategik xomashyo (uran va nodir metallar) hamda suv resurslarini boshqarish yo‘nalishida ko‘p milliardlik strategik loyihalar amalga oshirilmoqda [8]. Fransiya YIning Markaziy Osiyo bo‘yicha strategiyasini amaliy va iqtisodiy mazmun bilan boyitishda yetakchi o‘rin tutmoqda.

4. Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Fransiyaning YI tashqi siyosatidagi strategik yetakchiligi Yevropaning global xalqaro tartibotdagi o‘rnini qayta belgilamoqda. Tyerri de Monbrial ta’kidlaganidek, Fransiya YIni shunchaki yagona savdo bloki yoki iqtisodiy makon sifatida emas, balki global geosiyosatda mustaqil va qudratli "Yevropa-davlat" (Europe-puissance) konsepsiyasi bo‘yicha ko‘rishni maqsad qilgan [9].

Fransiya o‘zining ta’sirini uch darajada amalga oshiradi:

1. Konsepsiyalarni (Strategik avtonomiya, EPC, Yadro aliansi) birinchi bo‘lib ilgari surish va ularni YI rasmiy lug‘atiga hamda strategik hujjatlariga kiritish.

2. YI Yevrokomissiyasi va Tashqi harkatlar xizmati (EEAS) doirasida fransuz kadrlarining yuqori pozitsiyalari orqali kun tartibini belgilash.

3. Berlin bilan kelishilgan holda YIning moliyaviy va iqtisodiy resurslarini Parijning strategik loyihalariga yo‘naltirish. Asosiy maqsad Fransiya Germaniya bilan diplomatik va iqtisodiy kelishuvlar orqali Yevropa Ittifoqining umumiy resurslarini o'zining geosiyosiy va strategik manfaatlariga xizmat qildirishidir.

Ushbu o‘zgarishlar O‘zbekiston Respublikasining ko‘p tomonlama tashqi siyosati uchun qator imkoniyatlar va vazifalarni belgilab beradi:

- Huquqiy va tashkiliy moslik: Xalqaro siyosiy va iqtisodiy jarayonlar faqatgina aniq normativ-huquqiy va tashkiliy mexanizmlar bilan mustahkamlangandagina natija beradi. Fransiyaning YI ichida normativ bosim o‘tkazish va o‘z standartlarini singdirish tajribasi O‘zbekiston uchun YI bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimni (EPCA/ESCA) amaliyotga tatbiq etishda hamda Jahon savdo tashkilotiga a’zo bo‘lish jarayonida muhim model bo‘la oladi.
- EPC va mintaqaviy diplomatiya: Yevropa Siyosiy Hamjamiyati (EPC) platformasi YI va Markaziy Osiyo o‘rtasida byurokratik g‘ovlarsiz teng huquqli va amaliy muloqot o‘rnatish uchun samarali mexanizmdir. O‘zbekiston ushbu platformadan va YI — "Markaziy Osiyo" sammitlari formatidan energetika xavfsizligi, raqamlashtirish va transport-logistika integratsiyasini tezlashtirishda unumli foydalanishi lozim.
- Strategik chaqiriqlar va YI ichki qarama-qarshiliklari: Shunga qaramay, Fransiyaning strategik avtonomiya g‘oyasi YI ichidagi ba’zi Sharqiy va Baltik bo‘yi mamlakatlari (AQSh va NATOning xavfsizlik kafolatlariga ustuvorlik beruvchi davlatlar) tomonidan to‘liq va bir ovozdan qo‘llab-quvvatlanmayotgani sababli munozaralar va kelishmovchiliklar saqlanib qolmoqda [10]. O‘zbekiston diplomatiyasi YI ichidagi ushbu balanslarni inobatga olgan holda moslashuvchan yondashuvni saqlab qolishi kerak.

5. Xulosa. Tadqiqot natijalarini umumlashtirib aytish mumkinki, Yevropa Ittifoqining Tashqi va xavfsizlik siyosati tizimida Fransiyaning huquqiy va tashkiliy o‘rni hal qiluvchi ahamiyatga ega. Parij o‘z manfaatlarini YIning xavfsizlik, diplomatiya, energetika va ekologiya sohasidagi rasmiy qoidalari hamda dasturlariga muvaffaqiyatli joriy etmoqda.

Fransiyaning Yevropa Ittifoqidagi yetakchilik roli va siyosiy dinamikasi O‘zbekiston Respublikasi uchun ham ikki tomonlama, ham ko‘p tomonlama munosabatlarda keng ko‘lamli strategik hamda amaliy imkoniyatlarni taqdim etadi. Ushbu imkoniyatlar uchta asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, Global Gateway va Middle Corridor (Transkaspiy transport yo’lagi) tashabbuslari orqali iqtisodiy va logistik integratsiya yaxshilanadi. YI Yevroosiyo makonida barqaror va xavfsiz transport zanjirini yaratishga intilayotgan bir paytda, Fransiyaning bu boradagi yetakchi o‘rni O‘zbekistonga Yevropa investitsiyalarini faol jalb qilish imkonini beradi. Bunga O‘zbekistonning logistika hamda energetika infratuzilmasiga ilg‘or Yevropa texnologiyalarini joriy etish, savdo yo‘llarini diversifikatsiya qilish hamda mintaqaning tranzit salohiyatini oshirish kiradi. Ikkinchidan, diplomatik maydon va ko‘p taraflama muloqot mexanizmlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tariladi. Yevropa Siyosiy Hamjamiyati (EPC) hamda "YI – Markaziy Osiyo" kabi yuqori darajadagi platformalar O‘zbekiston uchun

mintaqaviy xavfsizlik, "yashil" energetikaga o‘tish, kiberxavfsizlik va suv resurslari diplomatiyasi borasida o‘z manfaatlarini ilgari surish uchun muhim minbar bo‘lib xizmat qiladi. Fransiyaning ushbu formatlardagi faol ishtiroki O‘zbekistonga global va mintaqaviy kun tartibidagi masalalarda Yevropa Ittifoqi bilan samarali hamkorlik o‘rnatish imkoniyatini beradi. Uchinchidan, ikki va ko‘p tomonlama hamkorlik muvofiqlashtirildi. O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi loyihalar Yevropa Ittifoqining umumiy dasturlari va moliyaviy imkoniyatlari bilan bir-birini to‘ldiradi. Bu esa mamlakatlarimiz o‘rtasidagi erishilgan kelishuvlarni nafaqat milliy darajada, balki butun Yevropa Ittifoqining resurslari ko‘magida yanada samaraliroq amalga oshirishga zamin yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Grant, C. (2021). France, Germany and the future of EU foreign policy. Centre for European Reform (CER), London, pp. 12-18.
2. Macron, E. (2017). Initiative pour l'Europe - Discours de la Sorbonne. Présidence de la République française, Paris.
3. Česnakas, G. (2023). European Strategic Autonomy: The Origins Story. In European Strategic Autonomy: Actors, Issues, Conflicts of Interests, Routledge, pp. 17–21.
4. European External Action Service (EEAS). (2022). A Strategic Compass for Security and Defence - For a European Union that protects its citizens, values and interests and contributes to international peace and security. Brussels.
5. European Commission. (2024). European Defence Industrial Strategy (EDIS) and the European Defence Industry Programme (EDIP). COM(2024) 150 final, Brussels.
6. Keohane, R. O., & Nye, J. S. (2012). Power and Interdependence (4th ed.). Longman.
7. Council of the European Union. (2023). Regulation on the establishment of a framework to facilitate sustainable investment (EU Taxonomy Regulation). Official Journal of the European Union.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati. (2023). O‘zbekiston va Fransiya o‘rtasidagi oliy darajadagi kelishuvlar hamda strategik sheriklik masalalari. Toshkent.
9. De Montbrial, T. (2020). Rapport annuel mondial sur le système économique et les stratégies (RAMSES 2021). Institut français des relations internationales (IFRI), Dunod, Paris, pp. 45-52.
10. Howorth, J. (2019). Strategic autonomy and EU-NATO relations: Threat or opportunity for transatlantic security? European Security, 28(4), 423-437.